

KREDIT MAHSULOTI PASPORTI

Kredit mahsuloti turi va nomi	Ipoteka krediti
Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchiga qo'yilgan talablar	O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lган, qarz oluvchining yoshi 18 dan 60 gacha bo'lган jismoniy shaxslar.
Kredit valyutasi	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'm;
Kredit muddati	180 oydan oshmagan muddatgacha;
Imtiyozli davr	12 oydan oshmagan muddatgacha;
Kredit miqdori	<ul style="list-style-type: none"> - Toshkent shahrida joylashgan yakka tartibdagi turar-joy binosi yoki ko'p qavatli uydagi kvartirani sotib olish uchun: BHMning 3200 barobaridan oshmagan miqdorda; - O'zbekiston Respublikasining boshqa hududlarida joylashgan yakka tartibdagi turar-joy binosi yoki ko'p qavatli uydagi kvartirani sotib olish uchun: BHMning 2400 barobaridan oshmagan miqdorda;
Foiz stavkasi	Markaziy bank asosiy stavkasi + 12%
Boshlang'ich badal miqdori	Kredit doimiy rasmiy daromadiga ega fuqarolarga ajratilganda: <ul style="list-style-type: none"> • Boshlang'ich to'lov sotib olinadigan uy-joy narxining 26%; Kredit o'zini-o'zi band qilgan shaxslarga ajratilganda: <ul style="list-style-type: none"> • Boshlang'ich to'lov sotib olinadigan uy-joy narxining 30%.
Taqdim etish shakli	Shartnomaga asosan sotuvchining hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li orqali;
Kredit maqsadi	Investitsiya shartnomasiga asosan birlamchi bozordan yoki ikkilamchi bozordan yakka tartibdagi turar-joy binosi yoki ko'p qavatli uydan kvartira sotib olish uchun ajratilganda;
Talab etiladigan hujjatlar	1) Ipoteka krediti investitsiya shartnomasiga asosan birlamchi bozordan yakka tartibdagi turar-joy binosi yoki ko'p qavatli uydan kvartira sotib olish uchun ajratilganda: <ol style="list-style-type: none"> 1.1. Investitsiya shartnomasi; 1.2. kredit hisobiga sotib olinayotgan ob'ekt joylashgan ko'p qavatli turar-joy yoki yakka tartibdagi turar-joy binosini qurish uchun vakolatli organ tomonidan ruxsatnoma mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar (hokimning qarori va boshqalar);

1.3. Qarz oluvchi bilan birgalikda turar-joyda ro'yxatdan o'tgan shaxslar to'g'risidagi quyidagi hujjalardan biri:

a) Qarz oluvchi bilan birgalikda turar joy/kvartirada ro'yxatdan o'tgan shaxslar to'g'risidagi so'nggi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan uy kitobi sahifalarining nusxasi. Kredit bo'limi xodimi uy daftarining tegishli betlaridan nusxa ko'chirib oladi;

b) Ushbu turar joy/kvartirada ro'yxatdan o'tgan shaxslar to'g'risida ichki ishlar organlarining ma'lumotnomasi;

v) Ushbu turar joy/kvartirada ro'yxatdan o'tgan shaxslar to'g'risida Davlat xizmatlari markazi yoki www.my.gov.uz rasmiy veb-saytidan olingan ma'lumotlar.

1.4. Qarz oluvchi nomiga ochilgan omonat hisob-varag'ida pul mablag'lari (Boshlang'ich badal) shakllantirilaganligi to'g'risidagi bank ma'lumotnomasi (kredit bo'limi xodimi qarz oluvchining nomiga bankda ochilgan omonat hisob-varag'ida pul mablag'larini shakllantirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni ABS tizimidan oladi);

1.5. Qarz oluvchi va Birgalikda qarz (mayjud hollarda) oluvchi(lar)ning shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID-karta, yashash guvohnomasi va boshqalar);

1.6. Ta'minot sifatida taqdim etiladigan mulkni baholash bo'yicha mustaqil baholovchi tashkilotning hisoboti.

2) Ipoteka krediti ikkilamchi bozordan **yakka tartibdagi turar-joy binosi yoki ko'p qavatli uydan kvartira sotib olish uchun ajratilganda:**

2.1. Sotuvchining turar-joy binosiga yoki ko'p qavatli uydagi kvartirasiga egalik qilish huquqini tasdiqlovchi hujjatning nusxasi bilan sotiladigan uy-joyning kelishilgan qiymati ko'rsatilgan holda yakka tartibdagi turar-joy binosini yoki ko'p qavatli uydagi kvartirani oldi-sotdi to'g'risidagi dastlabki shartnomasi;

2.2. Kredit hisobiga sotib olinayotgan yakka tartibdagi turar-joy yoki kvartirada ro'yxatdan o'tgan shaxslar to'g'risidagi quyidagi hujjalardan biri:

a) Qarz oluvchi bilan birgalikda turar joy/kvartirada ro'yxatdan o'tgan shaxslar to'g'risidagi so'nggi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan uy kitobi sahifalarining nusxasi. Kredit bo'limi xodimi uy daftarining tegishli betlaridan nusxa ko'chirib oladi;

b) Ushbu turar joy/kvartirada ro'yxatdan o'tgan shaxslar to'g'risida ichki ishlar organlarining ma'lumotnomasi;

v) Ushbu turar joy/kvartirada ro'yxatdan o'tgan shaxslar to'g'risida Davlat xizmatlari markazi yoki www.my.gov.uz rasmiy veb-saytidan olingan ma'lumotlar.

2.3. Qarz oluvchi nomiga ochilgan omonat hisob-varag'ida pul mablag'lari (Boshlang'ich badal) shakllantirilaganligi to'g'risidagi bank ma'lumotnomasi (kredit bo'limi xodimi Qarz oluvchining nomiga bankda ochilgan omonat hisob-varag'ida pul mablag'larining shakllantirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni ABS tizimidan oladi);

2.4. Qarz oluvchi va Birgalikda qarz (mayjud hollarda) oluvchi(lar)ning shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID-karta, yashash guvohnomasi va boshqalar);

	<p>2.5. Mulkni baholash bo'yicha mustaqil baholovchi tashkilotning hisoboti.</p> <p>Qarz oluvchining o'rtacha oylik daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar bank tomonidan maxsus tarmoqlar orqali elektron shaklda mustaqil ravishda olinadi. Agar Qarz oluvchining o'rtacha oylik daromadlarini aniqlash imkoniyati bo'limgan taqdirda, o'rtacha oylik daromadlarini va boshqa daromad manbalarini tasdiqlovchi hujjatlar Qarz oluvchidan talab qilinishi mumkin. Ipoteka kreditlari o'zini-o'zi band qilgan fuqarolarga ajratilganda, Qarz oluvchining o'zini-o'zi band qilganligi to'g'risidagi guvohnoma va daromadlarini yozma ravishda tasdiqlangan shakli. Shuningdek, Qarz oluvchining to'lov qobiliyati uning bank karta aylanma mablag'lari, ijara, communal va boshqa xarajatlari orqali tahlil qilinishi mumkin.</p>
Kredit ta'minoti	<p>Ipoteka krediti investitsiya shartnomasiga asosan birlamchi bozordan yakka tartibdagi turar-joy binosi yoki ko'p qavatli uydan kvartira sotib olish uchun ajratilganda:</p> <ul style="list-style-type: none"> Asosiy ta'minot – kredit hisobiga sotib olinadigan turar-joy yoki ko'p qavatli uydan kvartira; Ushbu sotib olinadigan turar-joy yoki ko'p qavatli uydan kvartira ta'minot sifatida kredit miqdorining 125% dan kam bo'limgan qiymatda qabul qilinadi; Kredit bo'yicha majburiyatlarni vaqtinchalik ta'minlash (asosiy ta'minot garov shartnomasini notarial yoki bank tomonidan mustaqil ravishda rasmiylashtirilguniga qadar) – bank talablariga javob beruvchi turar yoki noturar joy garovi. <p>Ipoteka krediti ikkilamchi bozordan yakka tartibdagi turar-joy binosi yoki ko'p qavatli uydan kvartira sotib olish uchun ajratilganda:</p> <ul style="list-style-type: none"> Kredit hisobiga sotib olinadigan yakka tartibdagi turar-joy binosi yoki ko'p qavatli uydan kvartira. <p>Bankka aloqador bo'lgan shaxslarga ajratilgan kreditlar bo'yicha ta'minot O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan miqdorda qo'shimcha ravishda qabul qilinadi.</p>
Kredit qaytarish tartibi	Kredit va hisoblangan foizlarni to'lash kredit shartnomasida belgilangan tartibda va shartlarda annuitet yoki differensial to'lov usulida amalga oshiriladi.
Alohida shartlar	<ul style="list-style-type: none"> * Ushbu shartlar asosida kredit ajratish bo'yicha qaror qilish vakolati Chakana kreditlash boshqarmasi Anderrayting bo'limiga beriladi. * Ijobiy kredit tarixiga ega bo'lishi. Bunda; <ul style="list-style-type: none"> 30+ 10 tagacha yo'l qo'yiladi; 60+ 5 tagacha yo'l qo'yiladi; 90+ 2 tagacha yo'l qo'yiladi. * MIB joriy qarzdorligi bo'lmasligi.